

O'ZBEKISTONDA FINTECH STARTAPLARINING MOLIYAVIY INKLYUZIYANI OSHIRISHDAGI RO'LI: UZUM, CLICK VA PAYME MISOLIDA

Keldiyorov Romozon Maxmarasulovich

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro iqtisodiy munosabatlar Fakulteti 1-kurs
talabasi Email: ramazonkeldiyorov07@icloud.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi moliyaviy texnologiyalar (FinTech) rivojlanishining bugungi holati va ularning aholi o'rtasida moliyaviy inklyuziyani oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Uzum, Click va Payme kabi platformalar misolida raqamli moliyaviy xizmatlarning ommaviylashuvi, ularning an'anaviy bank tizimidan farqli afzalliklari va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Bundan tashqari, maqola hali bu sohada hal etilishi zarur bo'lgan kamchiliklar, infratuzilma va moliyaviy savodxonlik bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: FinTech, moliyaviy inklyuziya, raqamli iqtisodiyot, Uzum, Click, Payme, elektron to'lovlar, ekotizim.

Abstract: This article analyzes the current state of financial technology (FinTech) development in Uzbekistan and its significance in enhancing financial inclusion among the population. Using platforms such as Uzum, Click, and Payme as examples, it explores the popularization of digital financial services, their advantages over traditional banking systems, and their impact on economic stability. Furthermore, the article identifies existing shortcomings in the field and provides practical recommendations regarding infrastructure and financial literacy.

Keywords: FinTech, financial inclusion, digital economy, Uzum, Click, Payme, electronic payments, ecosystem.

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние развития финансовых технологий (FinTech) в Узбекистане и их значение в повышении финансовой инклюзивности среди населения. На примере таких платформ, как Uzum, Click и Payme, рассматривается популяризация цифровых финансовых услуг, их преимущества перед традиционной банковской системой и влияние на экономическую стабильность. Кроме того, в статье освещаются существующие недостатки в этой сфере, а также даются практические рекомендации по улучшению инфраструктуры и повышению финансовой грамотности.

Ключевые слова: FinTech, финансовая инклюзивность, цифровая экономика, Uzum, Click, Payme, электронные платежи, экосистема.



KIRISH

Moliyaviy inklyuziya - bu aholining barcha qatlamlari uchun bank xizmatlari, to'lov tizimlari, kredit, jamg'arma va sug'urta xizmatlariga teng, tezkor va qulay kirish imkoniyatini ta'minlash.

So'nggi o'n yil ichida O'zbekiston iqtisodiy va texnologik islohotlari moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini va raqamli transformatsiyani jadallashtirdi. Mobil qurilmalardan foydalanishga bo'lgan talabning ko'plab kasb va yosh qatlamlarida ortishi, raqamli strategiyalarning (Digital Uzbekistan 2030) amalga oshirilishi va xususiy sektorning innovatsiyalarga investitsiya jalb qilishi natijasida FinTech sektori mamlakatda tez rivojlanmoqda. Bu o'zgarishlarning markazida to'lov va moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish turibdi - mobil hamyonlar, onlayn to'lov tizimlari, mikroqarz platformalari va integratsiyalashgan super-app loyihalari kundalik moliyaviy xulq-atvorni va raqamli elektron tizimlardan foydalanish savodhonligini, hattoki, chekka hududlardagi aholi qatlamlarida ham tubdan o'zgartirdi. Bu kabi o'zgarishlarda esa albatta, Fintech start-uplarining o'rni va ahamiyati alohida etirofga loyiq. Moliyaviy inklyuziya nazariyasida FinTech startaplar raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy xizmatlarni demokratlashtirish vositasi sifatida ko'riladi. FinTechning asosiy yo'nalishlari - raqamli to'lovlar, onlayn bank xizmatlari va mikroqarzar bo'lib, ular iqtisodiy tenglikni oshirishga yordam beradi.

Biroq bu o'zgarishlar qatorida haligacha bu sohada mamlakat iqtisodiy salohiyati kattaligi, start-up va raqamli xizmatlar sohasida imkoniyatlar yetarlicha ishga solinmayotganligi va aholi qatlamlarida moliyaviy savodhonlik ko'nikmalaridagi muammolar raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini pasaytirayotganligi hali bu kabi tizimlarda chorasini ko'rilishi zarur bo'lgan to'siqlar va kamchiliklar talaygina ekanligini, o'z navbatida esa iqtisodiy imkoniyatlar bazasi kattaligini ko'rsatadi.

O'zbekiston hududida so'ngi yillarda Fintech start-uplarining jadal o'sagotganini, mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarida asosiy drayverga aylanib borayotganini va bu jarayonlar natijasi o'laroq moliyaviy inkulzivlik oshayotganini bu boradagi xizmatlarda mamlakat hududida asosiy o'yinchilarga aylangan Uzum, Click va Payme kabi yirik kompaniya va istiqbolli start-uplar misolida ko'rish mumkin.

Uzum - jismoniy shaxslar, kichik va o'rta biznes uchun fintech, e-commerce va bank xizmatlarini birlashtirgan O'zbekiston raqamli ekotizimi: marketpleys, tezkor yetkazib berish xizmati, klassik va raqamli banklar, BNPL xizmati, avtomobil sotib olish platformasi, shuningdek, tadbirkorlar uchun ilovadir. Uzum xizmatlaridan har oyda O'zbekistonning 17 milliondan ortiq aholisi foydalanadi. 2025-yilda Uzum CB Insights reytingida dunyoning eng istiqbolli 100 FinTech startapidan biriga aylangan va 2024-yilda kompaniya 1,16 milliard dollarga baholanib, O'zbekiston tarixidagi birinchi "Yunikorn" (qiymati 1 mlrd dollardan oshgan startap) kompaniyaga aylandi.



Uzum bir nechta yirik servislarni o'z ichiga oladi, ularning maqsadi foydalanuvchining kundalik ehtiyojlarini bir joyda hal qilishdir:

Uzum Market: Mamlakatdagi eng yirik marketplace. U 1 kunlik yetkazib berish xizmati bilan mashhur va butun respublika bo'ylab keng tarqalgan tarqatish punktlariga (PVZ) ega.

Uzum Bank: To'liq raqamli bank bo'lib, o'tkazmalar, to'lovlar va keshbek tizimini taqdim etadi.

Uzum Nasiya: Shariat tamoyillariga asoslangan muddatli to'lov (BNPL) servisi.

Uzum Tezkor: Restoranlar va do'konlardan tezkor yetkazib berish xizmati.

Uzum Islom Moliya: Islom moliyasi tamoyillari asosida xizmat ko'rsatuvchi alohida bo'linma.

Uzum ekotizimi O'zbekistonda moliyaviy inkluziya (aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati) darajasini oshirishda asosiy drayverlardan biriga aylandi. 2024-2025 yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, kompaniya bu yo'nalishda quyidagi muhim natijalarga erishgan:

1. Bank xizmatlarining ommalashishi (Uzum Bank)

O'zbekiston aholisining salmoqli qismi (ayniqsa chekka hududlarda) an'anaviy bank xizmatlaridan uzoqda edi. Uzum Bank buni raqamli texnologiyalar orqali o'zgartirdi.

2. Kredit olish imkoniyatining kengayishi (Uzum Nasiya)

An'anaviy banklardan kredit olish qiyin bo'lgan yoki kredit tarixi mavjud bo'lmagan fuqarolar uchun BNPL (Hozir ol, keyin to'la) tizimi joriy etildi

3. Hududiy qamrov va logistika

Moliyaviy inkluziya faqat poytaxt bilan cheklanib qolmay, viloyatlarga ham kirib bordi.

4. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash

Uzum Market platformasida 14 000 dan ortiq mahalliy tadbirkorlar o'z mahsulotlarini sotmoqda.

5. Moliyaviy savodxonlik

Uzum Mastercard bilan hamkorlikda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirmoqda.

Uzum O'zbekiston aholisining 40% ini (16 million kishi) qamrab olgan holda, moliyaviy xizmatlarni oddiy smartfon ilovasiga aylantirdi. Bu nafaqat qulaylik, balki mamlakat iqtisodiyotining shaffofligini oshirishda ham katta rol o'ynamoqda.

Click - O'zbekistondagi eng yirik va yetakchi mobil to'lov tizimlaridan biri hisoblanadi. Kompaniya 2011-yilda tashkil etilgan va hozirgi kunda mamlakatning raqamli moliya bozorida asosiy drayverlardan biri bo'lib qolmoqda.



Asosiy faoliyati va xizmatlariga tuxtaladigan bo'lsak, Click platformasi foydalanuvchilarga turli moliyaviy amaliyotlarni masofadan turib bajarish imkonini beradi:

To'lovlar: Kommunal xizmatlar, mobil aloqa, internet, davlat xizmatlari, jarimalar va ta'lim uchun to'lovlar.

O'tkazmalar: Kartadan kartaga (P2P) pul o'tkazmalari.

Click-koshelok: Bank kartasini bog'lamagan holda mablag' saqlash va to'lov qilish imkoniyati.

Click Market: Ilova ichidagi internet-do'kon bo'lib, undan turli mahsulotlarni sotib olish mumkin.

Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, foydalanuvchilar soni 15 milliondan oshgan va bu O'zbekistonning iqtisodiy faol aholisining katta qismini tashkil etadi. Hamkorlik aloqalari va integratsiya jarayonlarida ham kompaniya salmoqli yutuqlarga ega. Ayniqsa, 2023-yilda Click kompaniyasi Uzun ekotizimi bilan birlashishini e'lon qildi. Bu strategik hamkorlik natijasida O'zbekistonda eng yirik texnologik gigant shakllandi. Bundan tashqari, Click ko'p yillar davomida "Yil brendi" va turli IT-mukofotlar g'olibi bo'lib kelmoqda va kompaniya O'zbekistonda birinchilardan bo'lib masofaviy identifikatsiya va "Oltin" statusli hamyonlarni joriy qilgan.

Moliyaviy inklyuzivlik (moliyaviy xizmatlarning hamma uchun ochiqligi) Click kompaniyasining ham asosiy strategik yo'nalishlaridan biridir. Kompaniya aholining bank xizmatlari bilan qamrab olinmagan qatlamlarini raqamli iqtisodiyotga jalb qilish uchun bir qator muhim xizmatlarni taqdim etadi:

Oflayn-to'lovlar - bu Click'ning moliyaviy inklyuzivlikdagi eng katta yutug'idir. Internetga bog'likning yo'qligi va bu xizmat orqali hatto, chekka qishloqlardagi aholi ham elektr energiyasi, gaz va mobil aloqa uchun bankka bormasdan va internet aloqasiz to'lov qilish imkoniga ega bo'ldi.

Kichik biznes va o'zini-o'zi band qilganlar uchun yechimlar ham bu boradigi yutuqlar sirasiga kiradi: Click Business - yakka tartibdagi tadbirkorlar va kichik do'konlar qimmatbaho bank terminallarini sotib olmasdan, shunchaki QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilishni boshlashlari mumkin.

Bu kichik biznesning "soya"dan chiqishi, rasmiy moliyaviy tizimga kirishiga yordam beradi va davlat iqtisodiy siyosatidagi ustuvor vazifa - kuzatilmaydigan iqtisodiyotni kamaytirishga o'z hissasini qo'shadi.

Payme - O'zbekistondagi eng mashhur va texnologik jihatdan ilg'or to'lov tizimlaridan biri bo'lib, 2011-yilda asos solingan. 2019-yildan buyon u xalqaro moliya giganti - Gruziyaning TBC Bank Group tarkibiga kiradi.

Payme foydalanuvchilarga moliya boshqaruvining keng ekotizimini taklif etadi:

P2P o'tkazmalar: Kartadan kartaga pul o'tkazish.



Payme GO: Internet bo'lmagan joylarda ham QR-kod yoki shtrix-kod orqali do'konlarda to'lov qilish texnologiyasi.

Payme Business: Tadbirkorlar uchun to'lovlarni qabul qilish, elektron cheklar va fiskallashtirish xizmatlari.

Keyinroq to'lov (BNPL): TBC Bank bilan hamkorlikda mahsulotlar uchun to'lovni kechiktirib amalga oshirish funksiyasi.

Mening uyim: Kommunal to'lovlarni avtomatlashtirish va barcha uy xarajatlarini bir joyda monitoring qilish.

Kompaniya moliyaviy ko'rsatkichlar va foydalanuvchilar qamrovi bo'yicha natijalari ham havas qilarli darajada. 2025-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, faol foydalanuvchilar soni oyiga 4.2 milliondan oshadi. Tranzaksiyalar hajmi 2024-yil davomida foydalanuvchilar ilova orqali 43.7 trillion so'mlik pul o'tkazmalarini amalga oshirishgan.

Payme O'zbekistonda moliyaviy xizmatlarni osonlashtirishda va ommalashtirishda quyidagi hissalarini qo'shmoqda:

Raqamli omonatlar: Ilova ichida TBC Bank bilan hamkorlikda masofaviy omonatlar ochish va kredit olish imkoniyatini yaratgan.

Moliyaviy savodxonlik: "Kirim-chiqim" bo'limi orqali foydalanuvchilar o'z xarajatlarini toifalarga bo'lingan holda tahlil qilishlari mumkin.

Hamyonlar va Goals: Ma'lum maqsadlar uchun pul jamg'arish (Payme Goals) va bank kartasiz elektron hamyonlardan foydalanish xizmatlari.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Payme O'zbekiston fintech bozorida texnologik yetakchilik va xalqaro hamkorlikva tajribani uyg'unlashtirgan eng ishonchli platformalardan biri hisoblanadi.

Tahlillar va malumotlar natijasida Fintech start-uplarining moliyaviy inkiluzivlik rivojidagi iqtisodiy va ijtimoiy tasirlariga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi o'rindagi iqtisodiy tasir - FinTech platformalar pul aylanish tezligini oshirib, iqtisodiy faollikni kuchaytirmoqda. Raqamli to'lovlar orqali tranzaksiya xarajatlari kamayib, naqd pulga bog'liqlik qisqarmoqda. Bu esa iqtisodiy shaffoflikni oshirib, soliq tushumlarining ko'payishiga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy tizimga integratsiyasi sezilarli darajada kuchaydi. Uzum Market, Click Business va Payme Business xizmatlari orqali minglab tadbirkorlar onlayn savdo va raqamli to'lovlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada, norasmiy iqtisodiyot qisqarib, KOBlarning bozor imkoniyatlari kengaydi.

Uchinchidan, FinTech asosidagi kreditlash va BNPL (Buy Now, Pay Later) modellari aholining kredit resurslariga kirishini osonlashtirdi. An'anaviy bank kreditlaridan foydalana



olmagan qatlamlar uchun Uzum Nasiya va Payme'ning kechiktirilgan to'lov xizmatlari iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi muhim mexanizmga aylandi.

Ijtimoiy tasirlar ro'yhatiga to'xtaladigan bo'lsak, FinTech startaplar O'zbekistonda moliyaviy tenglikni oshirishda muhim ijtimoiy rol o'ynamoqda. Chekka hududlarda yashovchi aholi uchun mobil ilovalar orqali to'lovlar va o'tkazmalarni amalga oshirish imkoniyati bank xizmatlaridan foydalanishdagi hududiy tafovutlarni kamaytirdi. Bundan tashqari, ayollar va yoshlar moliyaviy mustaqillikka erishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Raqamli hamyonlar va onlayn savdo platformalari uy sharoitida daromad topish, jamg'arish va moliyaviy rejalashtirishni osonlashtirdi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik darajasi oshmoqda. Payme'dagi "Kirim-chiqim", Uzum va Click'dagi xarajat tahlillari foydalanuvchilarning moliyaviy qarorlarini ongli ravishda qabul qilishiga yordam bermoqda.

FinTech sohasidagi tezkor rivojlanishga, raqamlashtirish borasidagi davlat dasturlariga va moliyaviy strategiyalarga qaramasdan, bir qator muammolar mavjud. Avvalo, chekka hududlarda internet va telekommunikatsiya infratuzilmasining yetarli emasligi raqamli xizmatlardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Ikkinchidan, aholining ayrim qatlamlarida moliyaviy savodxonlikning pastligi raqamli firibgarlikni va noto'g'ri kreditlar va muddatli to'lovlar sabab aholi qarz yukini oshiradi. Uchinchidan, Fintech texnologiyalarini joriy etish va ularning monapollashuv jarayonlarini oldini olishda huquqiy baza yetishmasligi va mavjud cheklovlar haligacha ular rivojiga cheklovlar tug'dirmoqda. Shuningdek, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ham dolzarbligicha qolmoqda.

Xulosa.

O'zbekistondagi FinTech startaplari, xususan Uzum, Click va Payme, moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Ular raqamli texnologiyalar orqali an'anaviy bank tizimining cheklovlarini bartaraf etib, aholining deyarli yarmini raqamli iqtisodiyotga jalb qildi. Iqtisodiy jihatdan bu platformalar tranzaksiyalar hajmini oshirib, KOBni qo'llab-quvvatlab va investitsiyalarni jalb qilib, mamlakat iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shmoqda. Ijtimoiy jihatdan esa ular inkluzivlikni ta'minlab, chekka hududlar va kam ta'minlangan guruhlar uchun moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtirdi, shuningdek, savodxonlikni oshirishga yordam bermoqda.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, FinTech sektori O'zbekistonning raqamli transformatsiyasida va umumiy iqtisodiy o'sishida asosiy drayverga aylanib bormoqda, ammo infratuzilma, savodxonlik va huquqiy muammolar hal etilmasa, ko'zda tutilgan rejalar, strategiyalar va potensial to'liq amalga oshmaydi. Kelajakda davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlar, (masalan, Mastercard va TBC Bank) o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali bu to'siqlarni bartaraf etish mumkin.





Natijada, FinTech O'zbekistonni raqamli iqtisodiyotda yetakchi mamlakatga aylantirishi va aholining umumiy farovonligini oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. <https://www.digital.gov.uz/oz>
3. https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/6471?utm_source
4. <https://uzum.com/en/>
5. <https://click.uz/ru>
6. <https://payme.uz/home/main>

